

## O'ZBEK XALQI TURMUSHI BILAN BOG'LIQ KOSIBCHILIK ASOSIDA SHAKLLANGAN XALQ MAQOLLARI

**Bobojonova Dilnoza Oxunjonovna**

Osiyo xalqaro universiteti

“Pedagogika psixologiya” kafedrası o'qituvchisi

E-mail: [bobojonovadilnozaoxunjonovna@oxu.uz](mailto:bobojonovadilnozaoxunjonovna@oxu.uz)

**Annotatsiya:** Xalqimiz o'z avlodiga insoniyat tarixidagi eng ibratli fazilatlar meros bo'lishini orzu qilgan va hozir ham shunday. Bu oliy tilak xalqimizning maqol-u topishmoqlari, afsona va rivoyatlari, latifa-yu loflari, xalq qo'shiqlari, termalari, ertak-u dostonlari, askiya va allalari kabi bebaho durdonalarida o'zining yorqin ifodasini topgan. Hech ikkilanmay aytish mumkinki, xalqimizning barcha fazilati, falsafasi, dunyoqarashi, turli hayotiy vaziyatlarga munosabati o'zbek xalq maqollarida aks etgan. Vatan va vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, to'g'rilik, yaxshilik, adolat va insof, do'stlik, tinchlik, mardlik va jasurlik, donolik, ilm-hunar, tarbiya va odat, odob-axloq, mehmon va mehmondo'stlik, go'zallik, kamtarlik, baxt va omad, sabr-qanoat, muhabbat, oila va qo'shnichilik, umid va ishonch, erk va ozodlik, or-nomus, g'urur, samimiylilik, vaqt va fursat qadri, yoshlik va qarilik haqidagi maqollar ana shular jumlasidandir.

**Kalit so'zlar:** maqol, kosib, yamoqchi, quloch, mo'ndi, dukchi, chopog', bordon, bo'yrachi.

**Kosib** – 1. Qo'l ishi bilan shug'ullanuvchi hunarmand.

2. Oyoq kiyimini (etik, mahsi va sh.k.) tikish bilan shug'ullanuvchi hunarmand<sup>1</sup>.

1. Kosib tikkanini maqtar,

Dehqon ekkani maqtar.

2. Kosibning qo'lidan dehqonning oyog'i halol.

3. Kosibning yonidan bir **quloch** nari o'tir.

4. Kosibning qozoni payshanba kuni quyuc qaynaydi.

5. Kosib qarisa yamoqchi bo'lar,

Otin qarisa **yuvuqchi** bo'lar.

6. Qo'li sust kosibdan oyog'i ildam gado yaxshi.

7. Qo'li sust kosibdan oyig'i ildam cho'pon yaxshi.

8. Yomon kosib bigiz tanlar.

<sup>1</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki jildlik. 1-jild. A-R. –Moskva: Rus tili, 1981. - 631 b.

9. Kosibning ko`nidan dehqonning o`lgani yomon.

10. Etikdo`zning etigi yirtiq.

11. Usta pichoqqa yolchimas,

Etikdo`z – bigizga.

**Kosibchilik** – tor ma`noda charmdan kovush, mahsi, shippak, etik va boshqa oyoq kiyimlarini qo`lda tikish bilan shug`ullanuvchi. Asosan, chorvachilik paydo bo`lganidan so`ng (miloddan avvalgi 4-3 ming yillik) xom teridan oyoq kiyimlari tikila boshlangach, kosibchilik shakllana borgan, lekin hali juda ibtidoiy ko`rinishda bo`lgan. Kosibchilik XIX asr oxirlari XX asr boshlarida Toshkent, Samarqand, Buxoro va, ayniqsa, Farg`ona vodiysi shaharlarida ancha rivojlangan. Kosibchilik butun dunyoda, ayniqsa, Sharqda, shu jumladan, O`rta Osiyoda keng taraqqiy etgan. O`zbekistonning shahar va qishloqlarida, ayniqsa, Farg`on vodiysida hozir kosibchilik xalq hunarmandchiligining uzviy turi sifatida yana rivojlana boshladi. Kosibchilikda faqat poyabzal tikish bilan cheklanib qolinmaydi, balki telpak, ot-ulov abzallari, qayish, pichoq qini kabi buyumlar tayyorlash bilan ham shug`ullaniladi. Keng ma`noda qo`lda bajariladigan ishlar bilan shug`ullanadigan kasblarning umumiy nomi.

**Kosibning qozoni payshanba kuni quyuq qaynaydi** O`tmishda shahardagi mayda hunarmand, jumladan, kosiblar kambag`alona turmush kechirishardi. Ilgari dam olish kuni hozirgiday yakshanba emas, juma kuni bo`lardir. Kosiblar chorshanba kuni tayyor bo`lgan kovush-mahsi va etiklarini, bo`zchilar bo`z-alaklarini sotib, bir haftaga yetadigan ro`zg`orlarini bozordan g`amlab chiqib, payshanba kuni o`z oilalari va xalfa-shogirdlari uchun palov yoki boshqa biror tansiq ovqat qilardilar<sup>2</sup>.

**Kosib qarisa yamoqchi bo`lar, otin qarisa yuvuqchi bo`lar.** Kosib poyabzal tikuvchi hunarmand, otin – o`tmishda uyida maktab tutib, qiz bolalarni o`qitgan muallima. Ko`pincha otin qarigach, uni o`z mahallasidagilar va atrof mahallalardagi kishilar tabarruk ayolga chiqazib, o`lik yuvuvchi – g`assol qilib qo`yadilar. Mazkur maqol orqali vaqtida o`z kasbingning sir-asrorini o`rganmasang, qariganingda qadring ketib, xor-zor bo`lasan degan ma`no nazarda tutilgan<sup>3</sup>.

**Kosib tikkanini maqtar,**

**Dehqon ekkani maqtar.**

Bahor kelishi bilan ekin-tekin ishlari boshlanib, dalalarda mavsum avjida bo`ladi. Dehqon yerga urug` qadaydi. Bahorda sochgan urug`larini mavsum mahalida yig`ishtirib olib, ro`zg`orini o`tkazadi. Kosib esa tikkan poyabzallari bilan maqtansa, dehqon olgan hosili bilan maqtanadi.

<sup>2</sup> Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov. Hikmatnoma: o`zbek xalq maqollarining izohli lug`ati. – T.: O`zb. Sovet Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990. – 528 b.

**Adabiyotlar:**

1. Oxunjonovna, B. D. (2023). MAHMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONU LUGOTIT TURK" DAGI SHAKLINI HAM, MAZMUNINI HAM SAQLAGAN IDIOMALAR TAHLILI.
2. Bobojonova, D. (2024). TYPES OF OCCUPATIONS RELATED TO THE LIFE OF THE UZBEK PEOPLE (within the profession of blacksmithing). *Modern Science and Research*, 3(2), 739–746. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29461>
3. More Citation Formats
4. Bobojonova , D. . (2024). MANIFESTATION OF LEXEMES RELATED TO THE PROFESSION OF BLACKSMITHING IN FOLK PROVERBS. *Modern Science and Research*, 3(1), 687–693. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28380>
5. More Citation Formats
6. Bobojonova Dilnoza Okhunjonovna. (2023). Mahmud Kashgari's Work "Devonu Lug'otit Turk" is an Important Scientific Heritage. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 538–543. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2169>
7. Bobojonova, D. (2023). MAHMUD KASHGARI'S WORK "DEVONU LUG'OTIT TURK" IS AN IMPORTANT SCIENTIFIC HERITAGE. *Modern Science and Research*, 2(12), 742–748. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27184>
8. Bobojonova, D. (2023). THE ROLE OF MAHMUD KASHGARI'S WORK "DEVONU LUG'OTIT TURK" IN THE DEVELOPMENT OF THE UZBEK LANGUAGE. *Modern Science and Research*, 2(4), 568–5672. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/19394>
9. More Citation Formats
10. Okhunjonovna, B. D. (2023). Comparative Analysis of Proverbs in "Devonu Lug'Otit Turk" and Currently Available. *European Journal of Higher Education and Academic Advancement*, 1(2), 194–198. Retrieved from <https://journal.silkroad-science.com/index.php/EJHEAA/article/view/139>
11. Bobojonova Dilnoza Okhunjonovna. (2023). A Proverb is a Product of Folk Wisdom. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(9), 333–338. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/1509>
12. Oxunjonovna, B. D. (2022). O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LISSONIY INTERFERENSIYANING KO'RINISHLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 14(1), 22-25.

13. Bobojonova, D. (2023). THE IMPORTANCE OF UZBEK FOLK PROVERBS. Modern Science and Research, 2(10), 670–675. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25751>
14. More Citation Formats
15. Bobojonova, D. (2023). MAHMOUD QOSHGARI'S "DEVONU LEXICOTIT TURK" AND ITS PLACE IN LINGUISTICS. Modern Science and Research, 2(10), 538–540. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24506>
16. Bobojonova, D. . (2023). ANALYSIS OF IDIOMS THAT PRESERVE BOTH FORM AND CONTENT IN MAHMUD KASHGARI'S "DEVONU LUG`OTIT TURK". Modern Science and Research, 2(9), 64–67. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/23909>
17. Okhunjonovna, B. D. (2024). Analysis of Folk Proverbs Based on Medicine. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(3), 125-131.